

IJODIY TA'LIM MUHITIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH
IMKONIYATLARI

Elbekova E'zoza Jamshid qizi

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti erkin tadqiqotchisi

www.mustangn1@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada talabalarning ijodiy qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ularning o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyati, mustaqil izlanuvchanlik qobiliyati shakllanishi uchun dars jarayonida o'quv topshiriqlaridan samarali foydalanish hamda mustaqil ta'limni tashkil qilish masalalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ijodiy ta'lim, o'quv topshirig'i, ijodiy qobiliyati, kasb, ko'nikma, amaliy, mustaqil, ijodiy fikrlash.

Kirish. Hozirgi zamon talabiga ko'ra ta'lim jarayoni bu talabalarga faqat bilim berish, ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olingan bilimlardan foydalanish bo'yicha o'quv ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat bo'lmay, balki ularga mustaqil bilimlarni qidirib topish, o'zlashtirish shakllari, usullari, vositalarini o'rgatishdan iborat. Hozirgi davrga kelib, iqtisodiyotning barcha jabhalaridagi kabi ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlar ham o'zining ijodiy natijasini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ta'lim tizimida mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, izlanuvchanlik, tashabbuskorlik qobiliyatlariga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Mutaxassislar tayyorlashda talabalarning ijodiy qobiliyati, ong va ko'nikmalarini o'stirish, ularning o'z kasblariga qiziqish va mas'uliyati, mustaqil izlanuvchanlik qobiliyati shakllanishi va oshishiga yordam beradi.

Oliy ta'lim tizimi bitiruvchilari zamon talabiga mos kadr bo'lib yetishishi uchun faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmaga ega bo'lishning o'zi yetarli emas, balki mustaqil va ijodiy fikrlash zarurati ham muhimdir.

Adabiyotlarning tahlili. Bugungi kunda ijodiy ta'lim muhitida o'quv topshiriqlari vositasida talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil etish nafaqat tushuntiruv va namoyishlar yordamida, balki mustaqil faoliyat va amaliy ta'sirlar jarayonida shakllantirilishi kerak. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayoni talabaning mustaqil bilim olish va o'rganish ko'nikmasini to'liq shakllantirishga yo'naltirilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlar va ko'rsatilgan muammolar oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish orqali ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, faol ta'lim usullarini ta'lim jarayonida qo'llash davr talabi ekanligini belgilab bermoqda. Fikrlar mazmunan o'xshash bo'lsada, har birida o'ziga xos yondashuv bor. Bizning fikrimizcha, ijodiy ta'lim muhitida mustaqil ta'lim – bu ta'lim oluvchining muammo yoki topshiriq yechimiga qaratilgan mustaqil va ijodiy faoliyati natijasidir.

Talabalarning o'quv faoliyatida mustaqillikni shakllantirishni muammoli ta'lim bilan bog'lagan. O'qituvchi talabalarga mustaqil o'qishga imkon beradiki, bitiruvchi kasbiy sifatlarini malaka va uning intellektual qobiliyati sifatida ta'riflaydi. O'qituvchining fikriga ko'ra mustaqil bilimning mavjudligi ko'rsatkichlari quyidagilardan iboratdir:

a) talabaning har xil manbalardan yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmasi va yangi malaka hamda ko'nikmalarga ega bo'lishi;

b) o'zlashtirilgan bilim va malakalarni keyingi mustaqil ta'lim olish uchun qo'llash malakasi;

v) har qanday hayotiy muammolarni hal qilishi uchun ularni amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyati.

Hozirgi paytdagi o'qitishni tashkil etish shakli mustaqil ta'lim olish ko'nikmasini shakllantirmasligi ta'lim oluvchilarda ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish xohishini kamaytiradi.

Xorijiy tadqiqotchilar butun hayoti davomida ta'lim olish – bu boshlang'ich, umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim yig'indisi emas, balki insonning butun hayoti davomida ta'lim olishni shakllantirishni ko'zda tutadi. Ular ta'lim olish insonning butun hayoti davomida uzluksiz jarayon bo'lishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirish – bosqichma bosqich hal qilinadigan muammodir. Shaxs faolligi turli, ya'ni o'quv ilmiy ishlab chiqarish, ijodiy faoliyatlar ta'sirida shakllanadi va rivojlantiriladi. Natijada mavjud bilimlarni taqqoslash, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish, mo'ljallangan yechim umumiy tuzilishini fikran tasavvur etish zarurati tug'iladi. Texnik ijodkorlikka individual yondashish ta'limning eng muhim prinsiplaridan birini amalga oshirish, yuqori darajadagi qiyin ijodiy faoliyatga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin, ana shunday yondashishda talabaning ma'naviy kuchi namoyon bo'ladi, mustaqil ijodiy ishda qatnashadigan barcha talabalarning, shu jumladan, eng bo'sh talabalarning ham bilim ham hunarni puxta egallashi uchun haqiqiy sharoit vujudga keladi.

Muhokama. Mustaqil ta'lim olishning ustuvor omillaridan biri talabaning bilim olishi uchun o'zi mas'ul bo'lishi, javobgarlikni his qilishidir. U o'qituvchiga qaram emas, u o'zi mustaqil ravishda nimani va qanday qilib o'rganishni hal qila oladi. Bunday talaba kamchiliklarini o'zi tuzatishi uchun mustaqil ishlaydi va izlanadi. Bunda talabaning ta'lim olishni mustaqil rejalashtirish qobiliyati ham muhimdir. Mustaqil fikrlash bilan bir qatorda ijodiy fikrlash haqida ham bir qator fikrlarga to'xtalamiz.

Ijodiy fikrlash – imkoniyatlar turli-tumanligiga tayanuvchi, muammo va masalalar umuman yangi yechimiga olib keluvchi idrok etish strategiyasini taqdim etadi. Uning psixologik mexanizmini divergent fikrlash bilan bog'laydilar. Sub'yektiv yangi mahorat yaratish, shuningdek, uni yaratish bo'yicha idrok etish faoliyatining o'zida yangilik yaratish bilan ifodalanadi. O'z belgisi bilan reproduktiv fikrlashdan farqlanadi.

Ijodiy fikrlash insonning tevarak-atrofdagi bo'layotgan jarayonlar, voqea va hodisalarga bo'lgan munosabatida turli muammolarni har xil usullar yordamida hal eta olishda namoyon bo'ladi. Faqat fanga oid formula, teorema hamda ta'riflarni eslab qolish bilan ijodiy qobiliyatini shakllantirib bo'lmaydi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirish har bir talabaga alohida yondashish orqali amalga oshiriluvchi jarayondir. Noan'anaviy masalalarning bunday turli darajalar bo'yicha guruhlanishida talabalarning psixologik va ijodiy ishlash qobiliyatlarining inobatga olishni nazarda tutadi.

Psixolog olimlar fikriga ko'ra talaba u yoki bu muammoni nazariy va amaliy bilimlariga asoslanib o'rgansa, o'rganilayotgan muammoning 70-80 foizi uzoq vaqt uning xotirasida saqlanib qoladi. Talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini aniqlash uchun

umumiy o'quv materialidan muhimlarini ajratib olish mahoratini yuqori, o'rta va quyi darajalarga ajratadi va ularga quyidagicha tavsiflab beradi (1-rasm):



1-rasm. Talabalarning mahorat darajalari

- yuqori daraja – o'rganilayotgan materialning muhim xususiyatini oson va tez ajratib oladi;
- o'rta daraja – o'qigan materialdagi muhim xususiyatlarini ajratishni asosan bajara oladi, shu bilan birga bir qancha xatolarga yo'l qo'yadi;
- quyi daraja – materialning muhim xususiyatlarini odatda gapira olmaydi.

Ushbu darajalar orqali talabalarning mustaqil va ijodiy ishlash faoliyatini rivojlantirish uchun ularning har biriga individual yondashuvni talab etadi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari talabalarining zaruriy bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, fan va texnika yutuqlari hamda fanlarning asoslari bilan tanishtirishdan tashqari, ularda o'z bilimlarini muayyan amaliy vaziyatlarda muvofiq ravishda mustaqil qo'llash qobiliyatlarini ham barcha vositalar orqali rivojlantirilishi lozim.

Har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishning yetakchi omillaridan biri, talabalarning umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridagi biror mahsulotni tayyorlashdagi mustaqil ijodiy texnologik faoliyatidir. Bunda turli modullar bo'yicha olingan nazariy bilimlarni mustaqil ravishda amalda ongli qo'llaniladi va mahsulotlarni tayyorlashda amaliy ifodasini topadi. Shu tariqa, talabalar faoliyatida jismoniy va aqliy mehnatni birlashtirish orqali ularda ijodiy qobiliyat rivojlantirib boriladi. Fan va texnikaning taraqqiyoti yoshlarning texnik ijodiyoti rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar ochadi. Shu bilan birga bu taraqqiyot texnik ijodkorlik ehtiyojini ham vujudga keltiradi. Fan-texnika taraqqiyotining istiqboli esa uning ijodkor "inson resurslari" bilan qanchalik ta'minlanishiga bog'liqdir.

Pedagogik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarda "o'quv topshirig'i", "ijodiy topshirig'" yoki "masala" tushunchasi keng berilgan. O'quv topshiriqlarni bajara olish malakasi shaxsning ongi va fikrlash qobiliyatini ko'rsatuvchi malakasidir. O'quv topshiriqlarni hal etish natijasida talaba bo'lajak kasbiy faoliyat muammolarini yechish usullarini egallaydi.

Insonning ongli faoliyati topshiriqlarni bajarishdir. Topshiriqda berilgan munosabat, maqsad, shart-sharoitga ko'ra topshiriq qabul qilinadi, yechiladi [4].

Natija va tahlillar. Ta'lim jarayoniga tadbiiq qilinadigan topshiriqlarni ikki guruhga ajratib o'rganamiz.

1. Bajarish usuli talabalarga ma'lum bo'lgan topshiriqlar. Bunday topshiriqlarni mashq deb qaraymiz.
2. Bajarish usuli talabalarga noma'lum bo'lgan topshiriqlar. Bunday topshiriqlarni muammoli topshiriqlar deb tushunamiz.

O'quv topshiriqlar to'plami – bu o'qituvchi yordamida talaba tomonidan mustaqil hal etiluvchi asosiy vazifalarni aks ettiradi. Bizning fikrimizcha, o'quv topshiriqlarni bajarish orqali mustaqil bilim olishga o'tish uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

Savol va topshiriqlar ustida ishlash talabalardan ijodiy faoliyatni, badiiy estetik tafakkur va tashabbuskorlikni talab qiladi. Talaba darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlaganda ozmi-ko'pmi mehnat qiladi, izlanadi, o'z ehtiyojiga javob topadi. Demak, mehnat bilan topilgan bilim, o'zlashtirilgan malaka va ko'nikmalar asta-sekin o'z-o'zidan insonning qalbiga, ongiga abadiy muhrlanib qoladigan ilmiy, hayotiy dunyoqarash va yuksak ahloqiy fazilatlarni tarkib toptiradi.

Talabaning mustaqil o'quv faoliyatiga nisbatan o'qituvchi tomonidan muayyan talablarning qo'yilishi ularning mazmunini boyitadi. O'quv topshiriqlar oldin o'zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda berilishi kerak. Ijodiy topshiriqlar tarkibiga ijodiy mashq, ijodiy mustaqil ish, turli didaktik o'yinlar kiradi. Agar ijodiy mashq vositasida o'rganilgan bilimlar yangi o'quv holatlariga tatbiq qilinsa, ijodiy mustaqil ish dalillardan yangi xulosalar chiqarish hamda yangicha faoliyat usullarini faoliyatda qo'llash bilan ajralib turadi.

O'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida talabalarda tashkiliy (o'quv faoliyatini mustaqil tashkil etish), mazmunli – jarayonli (o'quv faoliyatining mazmuni va mohiyatini bilish va bu faoliyatni samarali amalga oshirishni belgilovchi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish) va o'z-o'zini baholash kabi ko'nikmalarning shakllanishi mustaqil bilim olishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv topshiriq'i mustaqil bilim olishning tashkiliy shakli sifatida belgilanadi va unga asoslanib, o'quv topshiriqlar tizimiga qo'yiluvchi talablar ishlab chiqiladi [5].

Mustaqil va ijodiy ishlash uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga rioya etilishi tavsiya etiladi:

- ✓ topshiriqlar haqiqiy vaziyatlar bilan bog'liq muammolarga qaratilishi kerak;
- ✓ o'quv topshiriq'idagi muammoni hal etishda talabalar aqliy faoliyatini turli usullar yordamida rivojlantirishni ko'zda tutadi;
- ✓ topshiriqlar mazmunida aks ettirilgan hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi muhim bog'liqlik ko'rsatilishi kerak;
- ✓ topshiriqlar yechimini aniqlash va talabalar ongida hodisalar yoki jarayonlar o'rtasida bog'liqlikni mustahkamlash imkoniyatlarini nazarda tutilishi lozim;
- ✓ topshiriqlarni bajarish jarayonida talaba oddiy tushunchalardan, u hali o'zlashtirilmagan yanada murakkabroq tushunchani keltirib chiqarish imkonini berishi lozim;

- ✓ topshiriqni bajarish jarayonida oddiy tushunchalar talabaga ma'lum bo'lmagan tushunchalar bilan o'zaro tahlil qilinadi;
- ✓ topshiriqni bajarishda talaba tushunchalarning shakli va mazmunini o'zgartirmasdan va o'zgartirib, ularni qayta ishlab chiqadi;
- ✓ ijodiy fikrlash asosida yangi bilimlar shakllanadi.

Talabalarning o'quv-topshiriqlarini bajarish jarayonida dastlabki amallarni bajarish o'qituvchi tomonidan doimiy nazorat qilib boriladi [7].

O'quv topshiriqlari murakkablashtirib borilishi kerak. Ijodiy va izlanish xususiyatiga ega bo'lgan iqtidorli talabalar murakkab topshiriqlarni bajarishlari, kamroq tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar topshiriqlarni bajarishlariga qaramasdan, ularga topshiriq yechimini topishi guruh bilan birga ishlashga imkon beradi. Talabalarning mustaqil va ijodiy fikrlash mahoratlarini quyidagi 3 ta darajaga ajratish mumkin:

1. Talaba muammoni yechish, topshiriqlarni bajarish yo'llarini o'zi izlaydi, mustaqil fikrlab, mulohaza yuritadi.
2. Talaba berilgan topshiriq yoki vazifani mustaqil bajaradi, ammo ijodiy yondosholmaydi. Mustaqil holda topshiriqni bajarishda muammolarni hal etadi, ammo natija qanchalik darajada to'g'riligini kuzatmaydi. Berilgan topshiriq yoki muammoli masalaga o'xshashlarini tuza oladi.
3. Muammoning tayyor yechimlaridan foydalanishga intiladi. Muammoni yechishda qiyinchilikka duch kelishi bilan yordam so'raydi. Muammoli masalani yoki topshiriqni mustaqil yechishda qobiliyati yetmaydi [9].

Oliy ta'lim muassasalarida turli modullarni o'qitishda talabalarning texnik ijodkorligini, ya'ni texnik fikrlashni, fazoviy tasavvur, loyihachilik zehni, bilimlardan muayyan muammoli vaziyatlarda foydalana olish iqtidorini va boshqa malakalarni rivojlantirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Fan xususiyatidan kelib chiqqan holda talabalarga mustaqil ish uchun boshqa shakllardagi vazifalar ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qaysi turdagi topshiriqlarni berish lozimligi kafedra tomonidan belgilanadi. Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijodkorligini shakllantirishi va rivojlantirishda mustaqil ishlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki talabalarda mustaqil holda topshiriqlar yoki mashqlarni bajarish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Talabalar o'zlari mustaqil ravishda yangi buyumni tayyorlagan talabalar texnika sohasidagi ijodiy faoliyat uchun zarur shaxsiy sifatlar va qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References)

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori.
2. Abdukudusov O., Rashidov H. Kasb-hunar pedagogikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent.: O'MKHTTKMO va UQT, 2008. – 240 b.

3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent.: Fan, 2006. – 102 b.
4. **Mustaqil ta’limni tashkil etish va baholash tartibi to’g’risida yo’riqnoma.**
<https://fayllar.org/qarshi-davlat-universiteti-fizika-matematika-fakulteti-amaliy.html?page=2>
5. Тўхтаева З.Ш., Тўракулова М.К., Тўракулова Б.Б., Мўминова М.С. Pedagogical innovation and the use of debate method in teaching technical sciences” “International Engineering Journal For Research & Development. Vol.5 Issue 3. – P. 1-5.
6. <http://www.bilim.uz>